

**MAVZU: AQSHNING GEOGRAFIK O'ZIGA XOSLIKLARI , TABIIY BOYLIKLARI**

*Aloiddinova Sevara G'anijon qizi .  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 742/22-guruh talabasi  
[aloviddinovasevara@gmail.com](mailto:aloviddinovasevara@gmail.com)  
Ustoz: Botirova Hakima*

**ANNOTATSIYA :**

Har bir davlat,mamlakat o'z o'zidan boyib yoki turli sohalarda rivojlanishining asosiy sababi uning geografik qulay joylashganligi va tabiiy resurslaridan unumli foydalanish hisoblanadi.Ushbu maqolamda Amerika Qo'shma Shtatlarining geografik o'ziga xosligi haqida ma'lumot berib o'taman.

**Kalit sòzlar :**

- Amerika Qòshma shtatlari
- Tabiiy resurslar
- iqtisodiy
- geografik
- kontinental
- energoresurs
- afroamerika
- subtropik
- gidroresurs
- zaxira

**Kirish:**

Amerika Qo'shma Shtatlari jahon mamlakatlari orasida maydoni jihatidan 4-, aholisi soni bo'yicha esa 3-o'rinda turadi. Shuningdek, AQSH iqtisodiy, harbiy-siyosiy va ilmiy-texnologik qudrati bo'yicha zamonaviy jahonning yetakchi davlatlaridan biridir. AQSH hududi 3 qismdan iborat: Shimoliy Amerika materigining o'rta qismidagi kontinental shtatlar, Shimoliy Amerikaning shimoli-g'arbida joylashgan Alyaska hamda Tinch okeandagi Gavayi orollari.

AQSH 3 ta – Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeaniga chiqish imkoniyatiga ega. U quruqlikda faqat Kanada va Meksika bilan chegaradosh. AQSH va Kanadaning chegarasi jahon bo'yicha ikkita davlat o'rtasidagi eng uzun chegara hisoblanadi. Bering bo'g'izi orqali AQSH Rossiya bilan chegaradosh.

Asosiy qism:

AQSH Shimoliy Amerikaning qoq markazida joylashgan jahonning eng yirik davlatlaridan hisoblanadi. Uning umumiy maydoni 3718 kv. Milya ya'ni 9631 kv. Kilometrni tashkil qiladi. AQSH aholi soniga ko'ra ham dunyoda yetakchi o'rinda turadi. 2007-yil so'nggi ma'lumotlariga ko'ra aholi soni 301,139,947 ni tashkil qiladi. Aholi o'sish ko'rsatkichi esa ancha past – 0.9%. Poytaxti Vashington DC shahri (570,898 – kishi). Amerika Qo'shma Shtatlarida 50dan ortiq shtatlar mavjud va har bir shtat o'zining gerbi, bayrog'l, madhiyasiga egadir. Yirik shaharlariga Nyu-York, Los-Anjeles, Chikago, Hyuston, Filodelfiya, San Diego, San Antonio, Dallas va Detroit kiradi (2003). Pul birligi – AQSh dollari. AQShida mahalliy til ingliz tili (82%) bo'lishi bilan birga mamlakatning janubiy qismlaida aholining ko'p qismi ispan tilida (11%) so'zlashadi (2000). Etnik jihatga ko'ra oq tanli aholi 75.1% ni tashkil qilsa, qora tanlilar esa 12.3%dir. Aholining 10 mlndan ko'proq qismi osiyoliklar, deyarli 2.5 mln Amerika hindulari va Alyaska mahalliy aholisi, 15 mlnga yaqini esa boshqa irq vakillari tashkil qiladi. AQShda protestantlar 52%, katoliklar 24%, musulmonlar esa 15%dir (2002). Aholining savodxonlik darajasi 97% ni tashkil etadi (1979). AQSH va Kanadaning chegarasi jahon bo'yicha ikkita davlat o'rtasidagi eng uzun chegara hisoblanadi. Bering bo'g'izi orqali AQSH Rossiya bilan chegaradosh. Siyosiy-hududiy tuzilishi nuqtayi nazaridan, AQSH – prezidentlik respublikasi: prezident davlat va hukumat rahbari hisoblanadi. AQSH 50 ta shtat va Kolumbiya federal poytaxt okrugidan iborat federatsiyadir. 48 ta shtat hamda Kolumbiya okrugi (Vashington shahri) kontinental shtatlar hududida joylashgan, 49- shtat Alyaska, 50-shtat esa Gavayi hisoblanadi. AQShning hozirgi aholisi uch asosiy etnik tarkibiy qismdan: AQSh amerikaliklari, muhojirlar va tub joy aholisidan iborat. AQSh aholisining 82,8 % ni asli kelib chiqishi yevropaliklar, 12,6 % ni afrikaliklar, 3,6 % ni osiyoliklar, 1 % ni hindular, eskimoslar, aleutlar tashkil etadi. Aholining 80% shaharlarda yashaydi. AQSh amerikaliklari millat sifatida asosan 18-asrning 2-yarmida Yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan muhojirlarning aralashib ketishi natijasida tarkib topgan. Afroamerikaliklar („qoralar“ deb mamlakat juda qulay iqlim sharoitiga ega.

AQShda yuzdan ortiq turdagi qazilma boylik turlari mavjud. Tabiiy resurslar orasida qazib olish sanoatida qiymat jihatdan eng katta ulush (90%) energoresurslar: neft, ko'mir, tabiiy gaz uranga tegishli. Va metallarning 755ga yaqin ulushi temir qazib olish va misga to'g'ri keladi. Shu bilan birga milliy iqtisodiyotning mineral homashyoga bo'lgan ehtiyojining 50%i import orqali qondiriladi. Xususan AQShda xrom, marganes, volfram, kobalt kabi strategic metallarning zahiralari yo'q.

Atlantika okeanining AQSh qirg'og'ida ko'rfaz va qo'ltiqlar juda ko'p, sohillari asosan pasttekislikdan iborat; eng katta yarim orol Florida. Mamlakat relyefi uch turga bo'linadi. G'arbdagi Kordilyera tog' tizmasi AQSh hududining uchdan bir qismini egallaydi. Tinch okean sohili baland tog'lar (Alyaska tizmasida AQSh va butun – 6194 m balandlikdagi Mak-Kinli cho'qqisi joylashgan; bundan tashqari Qirg'oqbo'yi

tizmalari va Kaskadli tog'lar, Syerra- Nevada tog'lari bor). Sharqiy mintaqani Qoyali tog' tizmalari egallagan. Mazkur ikkala tog'li mintaqa oralig'ida Kolumbiya va Kolorado platolari bor. Katta Havza cho'l yassi tog'liklarini chuqur daralar bir-biridan ajratib turadi. Sharqda uncha baland bo'lmagan Appalachi tog'lari (balandligi 2037 m gacha, Mitchell tog'i) bo'lib, uni torgina Atlantika bo'yi past tekisligi okeandan ajratib turadi. Kordilyera bilan Appalachi o'rtasida Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar (yoki Preriy platosi) va Meksikabo'yi tekisliklarini o'z ichiga olgan ichki tekisliklar joylashgan. Shim.da suv- muz shaklidagi relyefli Lavrentiy tepaligining bir qismi joylashgan. AQSh – foydali qazilma zaxiralari va xilma-xilligi jihatidan dunyoning eng boy mamlakatlaridan biri. Ko'mir, neft, gaz, mis, qo'rg'oshin, pyx, uran, temir, titan rudalari, simob, oltin, molibden, volfram, fosforit konlari mavjud.

AQSh hududining deyarli hammasi mo'tadil va subtropik mintakalarda, Alyaska – subarktika, Floridaning janubiy qismi tropik mintaqalarda joylashgan. Mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqiy qismlari iqdimiga iliq Golfstrim oqimi, Tinch okean sohili iqlimiga sovuq Kaliforniya oqimi anchagina ta'sir o'tkazadi. Hudud yuzasining tuzilish xususiyatlariga ko'ra shimoliy va janubiy mintaqalar o'rtasida havoning faol almashinuvi munosabati bilan ob-havo tez-tez o'zgarib turadi. AQSh ichki mintaqalarining iqlimi – kontinental, Kordilyera ichki hududlarida keskin kontinental. Bismark shahrida (Shimoliy Dakota shtati) yanvarning o'rtacha harorati  $-19^{\circ}$ , iyulda  $21^{\circ}$ , Chikago shahrida yanvarda  $-3,7^{\circ}$  va iyulda  $32^{\circ}$ , G. Meksikabo'yi pasttekisligi va Atlantika bo'yi pasttekisligining janubiy qismida subtropik iqlim. Yangi Orlean shahrida yanvarning o'rtacha harorati  $12^{\circ}$ , iyulda  $27,4^{\circ}$ . Atlantika bo'yi sohilining shimoli-sharqiy qismi va Tinch okean bo'yi sohilining shimoliy qismida – dengiz iqlimi. NyuYorkda yanvarning o'rtacha harorati  $-0,8^{\circ}$ , iyulda  $23^{\circ}$ . Tinch okean sohilining janubida O'rta dengizga o'xshash iqlim, Kordilyera janubiy qismining ichki tumanlarida juda issiq va qurg'oqchil. Havoning eng past harorati ( $-64^{\circ}$  gacha) Yukon yassi tog'ligi (Alyaska)da, eng yuqori harorati esa ( $50^{\circ}$ ) Ajal vodiysi (Kaliforniya)da kuzatilgan. O'rtacha yillik yog'in Alyaskaning janubi-sharqida va Vashington shtatining g'arbida – 3000- 4000 mm, mamlakatning janubi-sharqida – 1500- 2000 mm, ichki tekisliklarda – sharqda 1 500 mmdan g'arbda 3 000 mm gacha. AQShning ko'p daryolari Atlantika okeani havzasiga quyiladi. Mamlakat hududidan dunyoning eng yirik daryo tizimlaridan biri – Missuri bilan Missisipi daryosi oqib o'tadi. Appalachidan oqib kelib Atlantika okeaniga quyiladigan daryolar (Gudzon, Potomak va boshqalar) – qisqa, tez va sersuv. Kordilyeraning daryo tarmog'i siyrakroq. Bu yerdagi Kolumbiya, Kolorado kabi soylar chuqur daralardan oqib o'tadi. Mamlakat shimolida, Kanada chegarasida Buyuk ko'llar (Yuqori ko'l, Guron, Michigan, Eri, Ontario) bor. Katta Havza tog'ida Katta Sho'r ko'l, Floridada ko'pdan-ko'p sayoz ko'l va qo'ltiqlar, Alyaskada muzliklardan hosil bo'lgan tektonik ko'llar, jumladan, Iliamna ko'li bor. Ichki suvlardan sanoat va kommunal suv ta'minoti, kema qatnovi, sug'orish

va gidroenergiya manbai sifatida barakali foydalaniladi. Tuproq qoplami xilma-xil. Shimoli- sharqda serajriq podzol (kulrang) va qo'ng'ir o'rmon tuproq, janubi-sharqda qizg'ish va sarg'ish tuproq, Ichki tekisliklarda qoramtir preriy, qoratuproq va to'q sur, Kordilyeraning tog' oralig'i platosida quruq dashtlarning kulrang va och sur tuproqlari. Mamlakat shimoli sharqida aralash va qarag'ay o'rmonlari, janubida keng bargli, Tinch okean sohili va Kordilyera yon bag'irlarida igna bargli o'rmonlar ustun. Markaziy tekisliklarning g'arbidagi ayrim joylarda o'tsimon preriy o'simlikzorlari, Buyuk tekisliklar, Kordilyera platosi va vodiylarida quruq dashtlarning o'simliklari saqlanib qolgan. Kordilyera yassi tog'ligining qurg'oqchil qismini yarim cho'l va cho'llar egallaydi. Muhofazaga olingan yirik tabiat obyektlari orasida lyellouston milliy bog'i, Yosemite milliy bog'i, Sekvoyya, Grand-Kanon milliy bog'lari, Mamont va Karlsbad g'orlari bor.

Atlantika okeanining AQSh qirg'og'ida ko'rfaz va qo'ltiqlar juda ko'p, sohillari asosan pasttekislikdan iborat; eng katta yarim orol Florida. Mamlakat relyefi uch turga bo'linadi. G'arbdagi Kordilyera tog' tizmasi AQSh hududining uchdan bir qismini egallaydi. Tinch okean sohili baland tog'lar (Alyaska tizmasida AQSh va butun 6194 m balandlikdagi Mak-Kinli cho'qqisi joylashgan; bundan tashqari Qirg'oqbo'yi tizmalari va Kaskadli tog'lar, Syerra-Nevada tog'lari bor). Sharqiy mintaqani Qoyali tog' tizmalari egallagan. Mazkur ikkala tog'li mintaqada oralig'ida Kolumbiya va Kolorado platolari bor. Katta Havza cho'l yassi tog'liklarini chuqur daralar bir-biridan ajratib turadi. Sharqda uncha baland bo'lmagan Appalachi tog'lari (balandligi 2037 m gacha, Mitchell tog'i) bo'lib, uni torgina Atlantika bo'yi pasttekisligi okeandan ajratib turadi. Kordilyera bilan Appalachi o'rtasida Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar (yoki Preriy platosi) va Meksikabo'yi tekisliklarini o'z ichiga olgan ichki tekisliklar joylashgan. Shim.da suv-muz shaklidagi relyefli Lavrentiy tepaligining bir qismi joylashgan. AQSh – foydali qazilma zaxiralari va xilma-xilligi jihatidan dunyoning eng boy mamlakatlaridan biri. Ko'mir, neft, gaz, mis, qo'rg'oshin, pyx, uran, temir, titan rudalari, simob, oltin, molibden, volfram, fosforit konlari mavjud. Tosh va kaliy tuzlari, oltingugurt va boshqa minerallar ham bor. AQSh hududining deyarli hammasi mo'tadil va subtropik mintakalarda, Alyaska –subarktika, Floridaning janubiy qismi tropik minntaqalarda joylashgan. Mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqiy qismlari iqdimiga iliq Golfstrim oqimi, Tinch okean sohili iqlimiga sovuq Kaliforniya oqimi anchagina ta'sir o'tkazadi.

Neft , gaz mis, qo'rg'oshin, pyx, uran, temir, titan rudalari, simob, oltin, molibden, volfram, fosforit konlari mavjud. Tosh va kaliy tuzlari, oltingugurt va boshqa minerallar ham bor. AQSh hududining deyarli hammasi mo'tadil va subtropik mintakalarda, Alyaska - subarktika, Floridaning janubiy qismi tropik mintaqalarda joylashgan. Mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqiy qismlari iqdimiga iliq Golfstrim oqimi, Tinch okean sohili iqlimiga sovuq Kaliforniya oqimi anchagina ta'sir o'tkazadi.

Hudud yuzasining tuzilish xususiyatlariga ko'ra shimoliy va janubiy mintaqalar o'rtasida havoning faol almashinuvi munosabati bilan ob-havo tez-tez o'zgarib turadi. AQSh ichki mintaqalarining iqlimi kontinental, Kordilyera ichki hududlarida keskin kontinental. Bismark shahrida (Shimoliy Dakota shtati) yanvarning o'rtacha harorati -19°, iyulda 21°, Chikago shahrida yanvarda -3,7° va iyulda 32, G. Meksikabo'yi pasttekisligi va Atlantika bo'yi pasttekisligining janubiy qismida subtropik iqlim. Yangi Orlean shahrida yanvarning o'rtacha harorati 12 deg, iyulda 27,4°. Atlantika bo'yi sohilining shimoli-sharqiy qismi va Tinch okean bo'yi sohilining shimoliy qismida - dengiz iqlimi. NyuYorkda yanvarning o'rtacha harorati -0,8°, iyulda 23 ° prime prime. Tinch okean sohilining janubida O'rta dengizga o'xshash iqlim, Kordilyera janubiy qismining ichki tumanlarida juda issiq va qurg'oqchil. Havoning eng past harorati (-64° gacha) Yukon yassi tog'ligi (Alyaska)da, eng yuqori harorati esa (50°) Ajal vodiysi (Kaliforniya)da kuzatilgan.

Mamlakatning materik qismi hududi dehqonchilik va chorvachilikning deyarli barcha tarmoqlarini yetishtirish uchun qulay bo'lgan agroiklim resurslariga ega. AQShning juda katta maydonini egallagan dasht zonasi mamlakatning eng yirik g'alla makonidir. Qizig'i shundan iboratki, deyarli 100-120 mln.tonna don lalmi yerlarda yetishtiriladi. Yalpi hosilning barqarorligi 6-7 yilda bir marta buziladi, ya'ni iqlim qurg'oqchil kelib, don ekinlari binnuncha zarar ko'radi.

AQSh – tabiiy resurslarning barcha turlariga boy. Mineral resurslarning ba'zi bir turlarining zaxiralari bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Shular qatoriga toshko'mir, mis, molibden, aluminiy xomashyosi, qo'rg'oshin- rux, uran rudalari, oltin, fosforitlar, har xil tuzlar kiradi. Yoqilg'i-energetika resurslari toshko'mir, neft, tabiiy gaz va gidroresurslarga asoslanadi. Toshko'mirning yirik konlari Appalachi havzasida hamda O'rta G'arb rayonida mavjud, bir yilda mamlakatda 900 million tonnadan ziyod ko'mir qazib olinmoqda.

AQSh yirik neft zaxiralari ega. Yirik neft konlari Alyaska (Pradxo-Bey), Texas, Nyu- Meksika, Luiziana, Kaliforniya shtatlarida hamda Meksika ko'rfazida joylashgan. Mamlakatda bir yilda 400-450 million tonna atrofida neft qazib olinmoqda. AQShda yirik tabiiy gaz konlari neft konlari yonida joylashgan (Texas, Kaliforniya shtatlari va Meksika ko'rfazi). Mamlakatda yiliga o'rtacha 500 milliard kub.m. tabiiy gaz olinmoqda.

AQShda qora va rangli metallurgiya tarmoqlari uchun zarur bo'lgan rudali qazilma konlari va zaxiralari ancha ko'p. Temir rudasining katta zaxiralari Buyuk ko'llarning sohillaridagi konlarda to'plangan.

AQShda qora va rangli metallurgiya tarmoqlari uchun zarur bo'lgan rudali qazilma konlari va zaxiralari ancha ko'p. Temir rudasining katt zaxiralari Buyuk ko'llarning sohillaridagi konlarda to'plangan. Daryolaridan Kolumbiya, Kolorado, Niagara gidroenergiya resurslariga boy bo'lib, undan hozirgi vaqtda samarali

foydalanilmoqda. Aholi soni bo'yicha mamlakat Xitoy va Hindistondan so'ng 3-o'rinni egallaydi. Aholi sonini bu darajaga yetishida immigratsiya katta rol o'ynagan.

AQSh aholisining soni 2004-yilning 1-yanvarida olingan ma'lumotga ko'ra 291,0 mln. Kishini tashkil etdi. Aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,2 foizga teng bo'lmoqda. Aholi soni tabiiy ko'payish hisobiga ham, immigratsiya hisobiga ham o'smoqda. Mamlakatda keyingi yillarda aholining har mingtasida 16 bola tug'ilmoqda, 9 kishi o'lmoqda. Tabiiy ko'payish koeffitsienti 7 ga teng. O'rtacha yashash davri erkaklar uchun 75 yoshni, ayollarda 81 yoshni tashkil etadi. AQSh aholisining o'rtacha zichligi iqtisodiy rivojlangan Yevropa mamlakatlaridan ancha past (o'rtacha 1 kv. Km. Maydonga 29 kishi). Aholi notekis taqsimlangan. Aholisining soniga ko'ra yirik shtatlar quyidagilar: Kaliforniya (35 mln. Kishi), Nyu-York (21 mln. Kishi), Texas (20 mln. Kishi), Florida (16 mln. Kishi). Umuman, mamlakatning iqtisodiy rivojlangan, yuqori darajada sanoatlashgan hududlarida aholining deyarli 2/3 qismi istiqomat qiladi (Bosvash, Chpits, Sansan). AQSh jahonning yirik urbanizatsiyalashgan hududlaridan biridir (shaharlarda yashovchilar ulushi 75 foiz). Millioner shaharlar qatoriga Nyu-York, chikago, Los-Anjeles, Xyuston, Filadelfiya, Detroyt, Dallas, Sietl, Boston, San-Fransisko va boshqalar kiradi.

Materikning eng past nuqtasi – Ajal vodiysi (-86m) ham AQSHda, Kaliforniya shtatida joylashgan. AQSH ko'mir, neft, tabiiy gaz, temir, turli rangli etallar rudalari, mineral tuzlarning yirik zaxiralari ega. Ayniqsa, mamlakatning g'arbiy tog'li hududlari mineral resurslariga boy. Ammo AQSHda sanoat ishlab chiqarishining hajmi yirikligi tufayli mamlakat mineral xomashyoning ko'p turlarini import qiladi. Kontinental shtatlarning hududi, asosan, mo'tadil va subtropik, Alyaskaning katta qismi subarktika va arktika, Florida yarimoroli hamda Gavayi orollari esa tropik iqlim mintaqasida joylashgan. Meksika ko'rfaziga tutash hududlarda tropikdovullar (tornado) ko'psodir bo'ladi. AQSH suv va gidroenergetika resurslariga boy. Mamlakatning eng yirik daryolari – Missisipi, Missuri, Rio-Grande, Kolorado, Kolumbiya.

### **Xulosa:**

AQSh hududining deyarli hammasi mo'tadil va subtropik mintakalarda, Alyaska — subarktika, Floridaning janubiy qismi tropik mintaqalarda joylashgan. Mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqiy qismlari iqdimiga iliq Golfstrim oqimi, Tinch okean sohili iqlimiga sovuq Kaliforniya oqimi anchagina ta'sir o'tkazadi. Hudud yuzasining tuzilish xususiyatlariga ko'ra shimoliy va janubiy mintaqalar o'rtasida havoning faol almashinuvi munosabati bilan ob-havo tez-tez o'zgarib turadi. AQSh ichki mintaqalarining iqlimi — kontinental, Kordilyera ichki hududlarida keskin kontinental. Bismark shahrida (Shimoliy Dakota shtati) yanvarning o'rtacha harorati -19°, iyulda 21°, Chikago shahrida yanvarda -3,7° va iyulda 32, G. Meksikabo'yi pasttekisligi va Atlantika bo'yi pasttekisligining janubiy qismida subtropik iqlim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) <https://uz.m.wikipedia.org>
- 2) <https://azkurs.org>
- 3) <https://reja.tdpu.uz>
- 4) <https://daryo.uz>
- 5) [Acharya, Viral V.; Cooley, Thomas F.; Richardson, Matthew P.; Walter, Ingo. Regulating Wall Street: The Dodd-Frank Act and the New Architecture of Global Finance. Wiley, 2010 — 592 bet. ISBN 978-0-470-76877-8.](#)
- 6) Baptist, Edward E.. The Half Has Never Been Told: Slavery and the Making of American Capitalism. Basic Books, 2014. ISBN 978-0-465-00296-2.